



MAHSULOT TANNARXINI REJALASHTIRISH VA TAHLIL QILISH
USULLARINI SAMARALI QO‘LLASH MASALALARI

Raimkulova Kamola Tagirovna

Bank-Moliya Akademiyasi

MBA “Biznesni boshqarish” magistranti,

“Texnopark” MCHJ iqtisodchisi, [+998993067688](tel:+998993067688)

ISSUES OF EFFECTIVE APPLICATION OF PRODUCT COST
PLANNING AND ANALYSIS METHODS

Raimkulova Kamola Tagirovna

Master’s student of the

MBA “Business Management”

department of the Bank-Finance Academy,

Economist of Technopark LLC, [+998993067688](tel:+998993067688)

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiyot tarmoqlaridagi sanoat korxonalari mahsulotlari tannarxi va uni rejalashtirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Jumladan, tannarx tarkibidagi komponentlari va ularning to‘liq tannarxdagi salmog‘i keltirilgan. Maqolada mahsulot tannarxining ishlab chiqarish rentabelligiga ta’sir etuvchi omillarga ta’riflar beriladi. Mamlakat sanoat tarmoqlarida mahsulot tannarxini rejalashtirishning zamonaviy metodlarini samarali qo‘llash masalalari o‘rganib chiqiladi. Maqola iqtisodiy va empirik tahlillar, jarayon kuzatuvlari va soha mutaxassislari bilan suhbatlar, savolnoma o‘tkazish usullari yordamida tayyorlandi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, mahsulot tannarxi, xarajatlar, sanoat tarmoqlari, rejalashtirish, ishlab chiqarish, ratsional sarf, biznes

Abstract: The article covers the cost of products of industrial enterprises in sectors of the economy and the theoretical and practical foundations of its planning.




In particular, the components of the tanning structure and their oscillations in full tanning are presented. The article provides definitions of factors affecting the profitability of production of the cost of products. In the industrial sectors of the country, the issues of effective application of modern methods for planning the cost of products are studied. The article was prepared using economic and empirical analysis, process observations and interviews with experts in the field, methods of conducting a questionnaire.

Keywords: *economics, product cost, costs, industrial sectors, planning, production, rational spending, business*

Kirish

Iqtisodiyot tarmoqlarida sanoat sohasining salmog'i yuzasidan yirik sohalar turiga kiradi. Mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan ishlab chiqarish korxonalari, doimiy ravishda daromadini maksimallashtirib, biznesini yanada kengaytirishga intiladilar. Bu esa, o'z navbatida, korxonalar mikrodarajada umumiy iqtisodiy o'sishga o'z hissalarini qo'shgan bo'ladilar. Ishlab chiqarishning marjinal daromadini oshirish uchun esa, albatta, mahsulot tannarxini samarali rejalashtirib, xarajatlar va resurslar sarfi nazoratini to'g'ri tahlil qilib borish katta ahamiyatga ega. Tannarx to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish korxonasining foydasiga ta'sir etadigan iqtisodiy-moliyaviy ko'rsatkichdir. Tannarx har bir ishlab chiqarilgan bir birlik mahsulotga sarflangan barcha xarajatlar yig'indisi va aylanma davrning yalpi xarajatlari summasi ko'rinishida ifodalanadi. Uning tarkibi quyidagi elementlardan tashkil topadi: 1-rasm.



1-rasm. Mahsulot tannarxi elementlari

Manba: Ma'lumotlar muallif tomonidan ilmiy tadqiqoti asosida tayyorlandi

Mahsulot tannarxini rejalashtirish - mahsulotning maqsadli narxini aniqlash, ishlab chiqarish rentabelligini va marjasini baholash, asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ishlab chiqarish jarayonidagi xarajatlarni nazorat qilish imkonini beradi. Tannarxni tahlil qilish-xarajatlarni kamaytirish, shuningdek, rezervlarini topish, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash, tannarxga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, rejadagi ko'rsatkishlardagi farqlar bo'yicha choralar ko'rishga yordam beradi. Umumiy va to'liq tannarxni hisoblashda yillik xarajatlar smetasini shakllantirgan holda va har bir mahsulot uchun alohida tuzilgan kalkulyatsiyadan foydalaniladi.

Adabiyotlar sharhi

Mahsulot tannarxini rejalashtirish keng qamrovli yo'nalish bo'lib, bir necha asrlardan buyon iqtisodiy maktablar davridan rivojlanib kelgan. Adam Smit va David Rikardo kabi olimlar qiymat nazariyasining asoslarini tuzganlar. Bu nazariya tannarx tushunchasining bazaviy asosidir. Alfred Marshall nisbiy nafillik nazariyasini yoritib bergan, bu nazariya tannarxni shakllanishiga o'z hissasini qo'shgan. Iqtisodchi olimlardan A.S.Borodkin, K.F.Luchenko, A.I.Minevskiy tannarxning nazariy va amaliy asoslari kabi ilmiy ishlar olib borishgan. Mamlakatimizda Sh.Sh.Shodmonov, D.Sh.Bababekova, B.O.Tursunov, A.Ibragimov, U.V.G'ofurov



kabi iqtisodchi olimlar iqtisodiyot haqida oliy ta'lim uchun darsliklar, o'quv qo'llanmalar tayyorlashgan. Darslikda va qo'llanmalarda korxonalar iqtisodiyotini o'z ichiga olgan ma'lumotlar, xususan, mahsulot tannarxini rejalashtirishga doir ma'lumotlar keltirilgan. O.K.Xonto'rayev o'zining "Mahsulot tannarxini hisoblashni amalda qo'llanilayotgan usullari tahlili" nomli maqolasida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etishning mahsulot tannarxiga ta'siri haqida tadqiqotida ko'rib chiqqan. X.S.Asatullayev va B.O.Tursunovning "Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi" kabi ilmiy ishlarida xarajatlarni tejash va samaradorligini oshirish yo'llari, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari va tannarxni kamaytirish imkoniyatlari haqida tadqiqotlari bilan bu mavzuga katta hissa qo'shganlar.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish korxonalari tayyor mahsuloti tannarxini rejalashtirishga doir usullarining hozirgi holatini o'rganish, tahlil qilish jarayonida kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llari o'rganildi. Mazkur tadqiqotni o'tkazishda iqtisodiy va empirik tahlillardan, kuzatuv usuli va soha mutaxassislari bilan suhbat, savolnoma kabi metodlardan foydalanildi. Horiy tajribasi, internet sahifasidagi ma'lumotlar o'rganildi. Korxonadagi bevosita ishlab chiqarish jarayonida tayyor mahsulotlar smeta va kalkulyatsiyalari to'g'risida amaliy ko'nikma hosil qilindi. Shu bilan birga maqolani tayyorlashda adabiyotlar sharhi, ma'lumotlarni guruhlash va taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Sanoat korxonalarida xarajatlarni rejalashtirishda va boshqaruv qarorlarini amalga oshirishda ikki xil klassifikator guruhdan foydalaniladi: xarajatlarni elementlariga ko'ra turkumlash va kalkulyatsiyaviy usulga ko'ra turkumlash. Xarajatlarni elementlariga ko'ra turkumlash tashqi foydalanuvchilar va investorlar uchun, uzoq muddatli rejalashtirish maqsadida, xarajatlarni kamaytirish, biznesning samarasini aniqlash uchun kerak bo'ladi. Kalkulyatsiyaviy usul esa, asosan, resurslarni samarali sarflanayotganini tahlil qilish maqsadida, ichki boshqaruv qarorlari va tezkor prognozlar uchun kerak bo'ladi. O'z navbatida, kalkulyatsiyaviy usulda xarajatlar



ishlab chiqarish tannarxi va to'liq/umumiy tannarxga turkumlanadi. Ishlab chiqarish tannarxiga mahsulotni bevosita yaratish bosqichida sarflangan barcha xomashyo va materiallar, jarayonda ishlagan ishchi-hodimlar ish haqi va ularning ish haqidan ijtimoiy ajratmalar, jarayonda foydalanilgan asbob-uskunalar va stanoklar amortizatsiyasi, kommunal xarajatlar: elektroenergiya, gaz va suv ta'minoti va boshqa ishlab chiqarish bilan bo'g'liq xarajatlar kiritiladi. Mazkur xarajatlar tasnifini yillar kesimida iqtisodiy elementlari bo'yicha tahliliy jadvalini quyida batafsil ko'rish mumkin: 1-jadval To'liq/umumiy tannarx yuqoridagi ishlab chiqarish tannarxiga mahsulotni sotish/realizatsiyasi bilan bo'g'liq xarajatlar, boshqaruv-ma'muriy xarajatlar va boshqa davriy operatsion xarajatlarni qo'shgan holda hisoblab chiqiladi. Qamroviga ko'ra tannarx rejali va haqiqiy/fakt kabi ikki turga turkumlanadi. Rejali tannarxni hisoblashda xarajatlar me'yori/ normasi va xarajatlar smetasi asos hujjat bo'ladi. Rejali tannarxni hisoblab chiqish, asosan, mahsulotni ishlab chiqarish jarayoni boshlanishidan avval amalga oshiriladi: 1-jadval

1-jadval

Mahsulot tannarxining iqtisodiy elementlari bo'yicha tahlili (yillar kesimida)

Xarajat guruhlari	2022 yil		2023 yil		2024 yil	
	Summa, mln.so'm	Salmog'i , %	Summa mln.so'm	Salmog'i , %	Summa, mln.so'm	Salmog'i , %
Moddiy xarajatlar, shu jumladan:	4 078	75	6 016	77	6 360,9	76
Xomashyo va materiallar	3 110	56	4 086	52	4 910	59
Yarimfabrikatlar	968	19	1 930	25	2 450	17
Ishchilar maoshi	350	6,4	553	7,1	530	6,3



Ijtimoiy sug'urta ajratmalari	45,6	0,85	65	0,9	68,7	0,8
Amortizatsiya ajratmalari	730	13,4	885	11,4	954	11,4
Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	21	0,45	26	0,4	38	0,5
El.energiya	95	1,7	131	1,5	249	3
Gaz ta'minoti	69	1,3	75	1	90,1	1,1
Suv va kanalizatsiya	48	0,9	59	0,7	73,2	0,9
Jami ishlab chiqarish tannarxi:	5 466,6	100	7 798	100	8 406,4	100

Manba: Mahsulot yalpi tannarxi hisoboti muallif taomonidan taxminiy raqamlarda tayyorlandi

Korxonada xarajatlarning iqtisodiy elementlari bo'yicha tarkibi va strukturasining tahlil qilar ekanmiz, o'z navbatida xarajatlar moddiy va boshqa doimiy xarajatlarga bo'linib, ularning salmog'ini ko'rishimiz mumkin. Bunda moddiy xarajatlar umumiy xarajatlarning 2022 yilda 75 % va 2023 yilda 77 % ini tashkil qilishini ko'rishimiz mumkin. Moddiy xarajatlar o'z navbatida xomashyo va materiallar, yarimfabrikatlarga bo'linadi.

2-jadval

Bir birlik tayyor mahsulotning rejali tannarxi kalkulyatsiyasi (so'mda)¹

Muzlatkich

SAMSUNG

42D/L

¹ Mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi taxminiy raqamlarda muallif tomonidan tayyorlandi



Ko'rsatkichlar		
		2
I	Xomashyo va materiallar:	890 250,00
		1
	<i>mahalliy</i>	416 222,50
		1
	<i>import</i>	474 027,50
1	Ishlab chiqarishga doir oylik maoshlar	231 220,00
2	Ijtimoiy soliq	27 746,40
3	Amortizatsiya ajratmasi (uskuna)	317 927,50
4	Kommunal to'lovlar	101 158,75
5	Texnik xizmat va uskunalar ta'miri xarajati	52 024,50
6	Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	28 902,50
		3
	Ishlab chiqarish tannarxi	649 229,65
II	Davr xarajatlari	520 245,00
II		4
I	To'liq tannarx	169 474,65
		2
	Foyda	330 525,35
I		6
V	Sotuv narxi (QQS dan tashqari)	500 000,00

I	V	7	
		Sotuv narxi (QQS bilan)	280 000,00
		Mahalliyashtirish darajasi	60%

Haqiqiy tannarx esa aylanma davr, odatda, bir oy muddat o'tganda korxonaning barcha srf-xarajatlarini aniqlash uchun hisoblanadi. Bunda bir birlik mahsulot ishlab chiqarilishidan avvalgi reja tannarxi va mahsulot ishlab chiqarilgandan so'ng faktda haqiqatan sarflangan xarajatlar solishtirilib, reja-fakt tahlil amalga oshiriladi. Shuning natijasida, xarajatlarning ratsional sarflanishi ustidan nazorat olib boriladi. Mahsulot tannarxini rejalashtirish va xarajatlarni ratsional sarflashning hozirgi kunda horij tajribasiga nazar solib, bir qancha yangi zamonaviy metodlarining tendensiyalari mavjudligini kuzatish mumkin: 3-jadval

3-jadval

Mahsulot tannarxini rejalashtirish va tahlil qilish usullari

Rejalashtirish strategiyasiga ko'ra	Metodlari	Mazmuni
Uzoq muddatli strategik rejalashtirish:	Target Costing	Bozordagi narx va olmoqchi bo'lgan foydasiga asoslanib tannarxni aniqlash
Tezkor / operativ rejalashtirish:	Standard Costing	Xarajatlarga standartlarni belgilash asosida, natijada fakt tannarxni standart bilan solishtirish
	ABC -Costing	Xarajatlarni faoliyatga va mahsulotga ko'ra taqsimlash asosida tannarxni aniqlash
	Byudjetlash	Har bir ishlab chiqarish bo'limi uchun xarajatlar byudjeti va limitini tuzish va nazorat



Texnologik instrumental rejalashtirish: va	ERP-tizimlar	Ishlab chiqarish, moliya, logistika haqidagi barcha ma'lumotlar integratsiyasi, rejalashtirishning avtomatizatsiyalangan jarayoni
	Ma'lumotlar tahlili tizimi	Katta hajmdagi ma'lumotlar tahlili, xarajatlar prognozi, jarayonlar optimizatsiyasi
	Raqamli modellash	Ishlab chiqarish jarayonining virtual modelini yaratish va tahlil qilish
	AI dan foydalanish	Xomashyo talabi va narxini prognozlash, jarayonlarni optimizatsiyalash, sifat nazoratini avtomatlashtirish
Uzluksiz mukammallik:	Kaizen	Ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksiz yaxshilanishi, barcha hodimlarni jarayonga birlashtirish
	Tejamli mahsulot	Sarflarni minimallashtirib, unumdorlikka erishish, axborot oqimini optimallashtirish
	Six Sigma	Ishlab chiqarilgan yaroqsiz mahsulot va uni tuzatish xarajatini kamaytirish

Manba: Internet tarmoqlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Rejalashtirish va tahlil qilishning yuqoridagi metodlari bugungi kunda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda sanoat tarmoqlarida keng qo'llanilmoqda. Bunga misol keltirib, Standard Costing, ABC-Costing, Just-in-Time kabi metodlar AQSH va Yevropada keng tarqalgan. Target Costing, Tejamli mahsulot va Kaizen Costing metodlari Yaponida keng qo'llaniladi.

Xalqaro savdoda ham mahsulot tannarxi muhim faktor hisoblanadi. Tannarxni boshqarish sanoat korxonalariga raqobatbardoshligini oshirib, xalqaro bozorga mahsulotini eksport qilishiga katta imkoniyatlar yaratadi.

**Muhokama**

Mavzu doirasida olib borilgan tadqiqotlardan quyidagi natijalarni berdi. Sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini rejalashtirishdan maqsad uning xarajatlari qiymatini pasaytirish bilan bog'liq. Korxonalar mahsulot tannarxini pasaytirishda bir qancha muammolarga duch kelishmoqda:

- Import xomashyo va materiallar narxining oshib borishi;
- Valyuta kursi o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy risklar;
- Mahalliy xomashyo va materiallar ishlab chiqaruvchi korxonalar kamligi;
- Transport va logistika xarajatlari (ham eksport, ham importda).

Ushbu masalalarning yechimi sifatida quyidagilarni taklif qilish mumkin:

1. Mahsulotni ishlab chiqarishga sarflanadigan xomashyo va materiallarni imkon qadar mahalliy yetkazib beruvchilardan harid qilish zarur. Bu o'z navbatida import qilinadigan moddiy xarajatlarni ulushini kamaytiradi, natijada valyuta kursi bilan bog'liq risklarni pasaytirishga erishiladi. Chunki, valyuta kursi oshib borishi oqibatida, sotib olinadigan import materiallarning narxi tobora oshib boradi va mahsulot tannarxini bor-yo'g'i valyuta kursining oshishi hisobiga ko'tarilishiga sabab bo'ladi

2. Xarajatlar me'yorini va smetasini qayta ko'rib chiqish mumkin, ba'zi materiallarni mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda nisbatan arzonroq alternativ turiga almashtirish, shu bilan birga, xarajatlar me'yoridagi materiallar va komponentlar hajmini va o'lchamini ham qayta ko'rib chiqib, optimal variantlarni sinovdan o'tkazib ko'rish taklif etiladi.

3. Bugungi kunda global darajada iqtisodiyotga yashil innovatsilarni va ekotizimlarni, raqamli texnologiyalarni joriy qilishni jadal suratlar bilan boshlab yuborilgan. Yashil innovatsiyalar ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarish natijasida tabiiy resurslarning tejalishi, ekologiyaga zararlilik ta'sirini kamaytirish bilan birga xarajatlarni optimallashtirishga, samaradorlik va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga yordam beradi. Bu tizimlarning istiqbollari va imkoniyatlarini kengroq yoritib berish maqsadga muvofiq bo'ladi:



- Energiya samaradorli texnologiyalar joriy etilishi elektroenergiya iste'molini kamaytirib, mahsulot tannarxini pasayishiga ijobiy ta'sir qiladi
- Quyosh va shamol energiyasidan foydalanish avvalgi an'anaviy qimmat bo'lgan energiya turlaridan foydalanishni kamaytiradi
- Iste'molchilar hozir ko'proq ekologik toza mahsulotlarga moyillik ko'rsatmoqdalar, shu sababli ham korxonada ekotizimlar joriy etilishi korxona obro'yiga va raqobatbardoshlikka ijobiy ta'sir etadi
- Ekotizimlarni joriy etgan korxonalarga investorlar va hamkorlarni jalb qilish oson bo'ladi.

Xulosa

✓ Mavzu doirasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida xulosa qilib aytganda, horijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, quyidagicha ilmiy takliflar va tavsiyalar berish mumkin bo'ldi. Kuzatuv natijasida aniqlandiki, ishlab chiqaruvchi korxonalar yuqoridagi tizimlarni qaysidir komponentlarini jarayonga bosqichma-bosqich joriy qilishmoqda, chunki bu tizimlarni to'liq ishlab chiqarish jarayoniga joriy qilinishi uchun, birinchi navbatda, katta miqdorda moliyaviy mablag' zarur bo'ladi. Ikkinchidan, bu tizimlarni mahalliy ishlab chiqarishga mos kelishi sinov tariqasida dastavval tekshiriladi, keyin tizimga o'tiladi. Uchinchidan bunday tizimlardan foydalana oladigan malakali mutaxassislar kerak bo'ladi, ularni zamonaviy innovatsion tizimlar bilan yaqindan tanishtirib, ko'nikma hosil qildirish zarurati bor. Bularni yo'lga qo'yish uchun, albatta vaqt talab qilinadi. Mazkur innovatsion tizimlarni mamlakatimiz sanoatiga joriy qilish, mehnat unumdorligini va samaradorligini oshishiga ko'maklashadi. Shu bilan birga, bunday tizimlarning afzalliklariga misol keltirib, atrof-muhitning zararlanishini kamayishi, yashil iqtisodiyotga yangi ish joylarini yaratilishini ham ta'kidlash mumkin. Bu o'z navbatida, mamlakatimiz hozirgi global sharoitda aktual bo'lgan "Industriya 5" davriga o'tishini prognoz qilsak bo'ladi.. "Industriya 4" da avtomatlashtirish va robotizatsiya jadal rivojlangan bo'lsa, endi markazga inson kapitali chiqdi. Inson va robot mashinalarning hamkorlikda ishlashi yo'lga qo'yilmoqda. Natijada,



mamlakatimizda innovatsion yangi yo‘nalishlar va tizimlar: yashil iqtisodiyot, ekotizimlar, raqamli texnologiyalar jadal rivojlana boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sanoat ishlab chiqarishini xom ashyo bilan uzluksiz ta‘minlash uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori 10.12.2020. №4919//lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sanoatda ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mahsulot tannarxini pasaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori 08.01.2014. №5.//lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori 01.05.2019. №4302//lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarni aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” qarori. 28.10.2024 №712 //lex.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2024 yillardagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga doir qaror va farmonlari //lex.uz
6. Asatullayev,X. Tursunov, B. Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi, Darslik. Toshkent T.: IQTISOD-MOLIYA, 2019.-206b
7. Iqtisodiyot va moliya vazirligining mahsulot tannarxini rejalashtirish bo‘yicha tahliliy nashrlari va statistik ma’lumotlari
8. Iqtisodiyot nazariyasi.Darslik.//Sh.Sh.Shodmonov.T.:LESSON PRESS,2021.-314b
9. Marshall,A. Iqtisodiy ilmning prinsiplari. Buyuk Britaniya. T.: Progress,1993.-38b
10. Rikardo, D. Siyosiy iqtisod va soliqqa tortishning boshlanishi. Buyuk Britaniya. T.:EKONOV, 1993.-38b
11. Smit, A. Xalqlar boyligining sabablari va tabiati haqidagi tadqiqot. Buyuk Britaniya. T.:Eksmo, 2022. -741b



12. Xonto'rayev, O. Mahsulot tannarxini hisoblashni amalda qo'llanilayotgan usullari tahlili. Toshkent T.: Worldldy Knowledge, 2024.-214b